

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI QAHRAMONLAR NUTQINING QIYOSIY TAHLILI

Nargiza Mirzaliyeva,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU erkin tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** Maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramonlar nutqi orqali ularning xarakteri, ruhiyatini ochib berish masalasi ilgari surilgan. Tadqiqot davomida Qahhor hikoyalari qahramonlarini xorijiy asarlar qahramonlari bilan solishtirish asar mohiyatini yana-da kengroq ochish imkonini berishi ta’kidlangan. Xususan, nobel mukofoti sovrindori Ernest Xemenguey hikoyalari qahramonlariga taqqoslab o‘rganish masalasi ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:** asar qahramoni, hikoya, ruhiyat, nutq, nutqiy xoslanish, taqqoslash, qahramon ichki dunyosi, holati, asar qiymati.*

Asar qahramonlarini o‘rganishda ularning ruhiyati tasviri anchadan buyon adabiyotshunoslar e’tiboridagi murakkab masalalardan biri hisoblanadi. U haqda ilk kuzatishlar olib borgan N. G. Chernishevskiy L. N. Tolstoy ijodida psixologizmning rang-barang shakllari mavjudligini ta’kidlab o‘tgan edi¹.

L. S. Vigotskiy til va tafakkur, adabiyot va jamiyat, ijod va idrok psixologiyasining o‘zaro munosabati bo‘yicha qimmatli kuzatishlar qoldirdi. Histuyg‘ularning badiiy fantaziya obrazlariga aylanishi borasidagi qarashlari olimning “har qaysi davr san’at tomonidan saralab olinadigan o‘z psixologik gammasiga ega”ligi haqidagi mulohazasida umumlashgan². Asar qahramonlarining ruhiyati jiddiy tahlil qilinishi lozim bo‘lgan masalalardandir.

O‘z navbatida, xorijiy adabiyotshunoslikning ustivor jihatlari inson ruhiyatiga sinchkovlik bilan qarash, Z.Freyd, K.Yunglarning bu sohasidagi izlanishlariga kuchli qiziqish bilan shartlangan edi. Binobarin, psixoanalizni badiiy-estetik fenomenlarga nisbatan qo‘llash metodlarining poydevori ular tomonidan qo‘yildi³. Psixologik-struktural estetika g‘oyalari fransuz faylasufi J. Lakan tomonidan ham ishlab chiqildi⁴. Istilohning o‘zidan foydalanish va badiiy psixologizmni tadqiq qilishga moyillik sho‘ro fani ishlanmalariga moslashgan nemis, polyak adabiyotshunosligida ham kuzatiladi⁵. Mazkur badiiy tushuncha olimlar tomonidan “ichki hayotga alohida

¹ Chernyshevskiy N. G. Detstvo i otrochestvo. Voyennyye rasskazy. Sochineniya grafa L.N. Tolstogo. Sobr. soch.: V 15 t. T. 2. – M.: 1949. – S. 505.

² Vigotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. – SPb.: Azbuka, 2000. – S. 93.

³ Qarang: Zelinskiy S.A. Tvorchestvo i psixoanaliz. Elektron manbaning internetdagi manzili: http://zhurnal/lib/ru/z/zelinskij_sergej_alekseewich/tytyt.shtml.

⁴ Dyakov A. V. Jak Lakan. Figura filosafo. M.: Izdatelskiy dom “Territoriya budushogo”, 2010. – 560 s. Elektron resurs: <http://www.jkhora.narod.ru/diakoff-lacan.pdf>

⁵ Marten S. K. Deutsche Literatur unserer Zeit. – Berlin, Leipzig, 1928; Grenzmann B. Deutsche Dichtung der Gegenwart. – Frankfurt a. M., 1955; Welzig W. Die deutsche Roman in 20. Jahrhundert. – Stuttgart, 1967.

qiziqish”, o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillik jarayonlariga nazar tashlash sifatida talqin qilinadi⁶.

O‘zbek olimlaridan A. Rasulov, B. Nazarov, U. Normatov, H. Umurov, H. Boltaboyev, B. Yo‘ldoshev, Q. Yo‘ldoshev, D. Quronov, I. Yoqubov, A. Erkinov, B. Karimov, U. Jo‘raqulov, Q. Qahramonovlarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida, monografiya va maqolalarida, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga oid darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarida yozuvchilarning ijod laboratoriyasi, ijodkor badiiy olami kabi masalalarda ko‘lamdor fikr-mulohazalar bildirilgan⁷. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz muammosi, uni yaratish tamoyil va shakllari, ruhiy tahlil va ong oqimi, ayniqsa, qahramonlar nutqi va yozuvchilarning inson ruhiyatini tasvirlash bobidagi mahorati H. Umurov, D. Quronov, A. Xolmurodov, U. Jo‘raqulov, T. Jo‘rayev, kabi olimlarning tadqiqotlarida, P. Kenjayeva, M. Boboxonov, kabi tadqiqotchilarning ishlarida maxsus o‘rganilgan⁸.

Mazkur muammo yuzasidan nuqtayi nazarlarning ko‘pligiga qaramasdan, hozirgacha asar qahramonlari misolida badiiy psixologizmning aniq tavsifi, tushuncha sarhadlari hamda yaxlit kotsepsiyasi ishlab chiqilgani yo‘q.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko‘ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik zavq berish, ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek kat’iy mantiq, soddalik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi.⁹

Abdulla Qahhorning o‘zbek hikoyachiligidagi eng yorqin asarlaridan biri bu – “O‘g‘ri” hikoyasidir. Mazkur asar qahramonlarining xarakteri ularning nutqidan anglashilib turadi. Asarda ayniqsa, Qobil bobo obrazi ta’sirli bayon qilingan. U asarda nihoyatda kamgap obraz sifatida gavdalanadi. Hikoyada amaldorlarning ham xarakteri ularning nutqi orqali ochib berilgan. Masalan qo‘shnisi burunsiz ellikboshi shunday deydi:

–Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

⁶ Slownik terminow literackich / Pod red. J. Slawinskiego. – Wroclaw, Warszawa, Krakow, Gdansk: Zaklad Narodowy im. Ossolinskich, 1976. – L. 357.

⁷ Umurov H. Tahlil san’ati. –T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1978.

⁸ Umurov X.I. Problema psixologizma i uzbekskiy roman: Diss. na soisk. uchen. step. d-ra filol. nauk. – Tashkent, 1983. – 363c.; Boboxonov M. Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 27 b.

⁹ Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, Fan. 2008. – B.88.

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyod sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.

– **Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...**

– Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

Undan so'ng amin keladi va Qobil boboning ustidan kulgandek qilib, sigirmidi deb so'raydi. Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

– Ha, sigir, yo'qoldimi?

– **Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.**

– Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

– Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

– Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

– **Ola ho'kiz...**

– Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

– **Qo'sh mahali...**

– Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

– **Bisotimda hech narsa yo'q...**

– O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

– Qidirtirsakmikin-a?– dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, - suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga "Ma, ho'kizing" degan-day bo'lib ketdi.

– **Kam bo'lmang,**– dedi pulni uzatib,– **yana xizimatingizdaman.**

Aminning tepa sochi tikka bo'ddi:

– Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, borilsin, arz qilinsin-da!

Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!

– **Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa...** – dedi chol yerga qarab.

Hikoya qahramonlarining xarakteri ularning gapirgan gapidan oydinlashadi.

Abdulla Qahhor buni ustalik bilan uddalagan. Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramonlar nutqi orqali ularning xarakteri, ruhiyatini ochib berish masalasi ilgari surilishi to'g'ri. Hikoya Ichida qahramonlar taqqoslanishi ham ularning tabiatini ochib berishga xizmat qiladi, biroq o'zbek adabiyotidagi hikoya qahramonlarini xorijiy, masalan, g'arb adabiyotining yorqin vakillari asarlari bilan muqoyasa qilish

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

yaxshi samara beradi. Tadqiqot davomida aynan Qahhor hikoyalari qahramonlarini xorijiy asarlar qahramonlari bilan solishtirish, xususan, Nobel mukofoti sovrindori Ernest Xemenguey hikoyalari qahramonlariga taqqoslab o‘rganish masalasi Qahhor ijodining yanada yorqinroq qirralarini ochib berishi shubhasiz. Xemengueyning “Bizning davrimizda”, “Ko‘prik bo‘yidagi chol”, “Yolg‘izlik” kabi hikoyalari qahramonlarini A.Qahhorning “Anor”, “Bemor” “Asror bobo” kabi hikoyalari qahramonlari bilan muqoyasa qilgan holda o‘rganish bu borada zarur xulosalarga kelishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Н. Толстого. Собр. соч.: V 15 т. Т. 2. – М.: 1949. – С. 505.
2. Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб.: Azbuka, 2000. – С. 93.
3. Marten S. K. Deutsche Literatur unserer Zeit. – Berlin, Leipzig, 1928; Grenzmann B. Deutsche Dichtung der Gegenwart. – Frankfurt a. M., 1955;
4. Welzig W. Die deutsche Roman in 20. Jahrhundert. – Stuttgart, 1967.
5. Słownik terminów literackich / Pod red. J. Sławinskiego. – Wrocław, Warszawa, Kraków, Gdansk: Zakład Narodowy im. Ossolińskich, 1976. – L. 357.
6. Umurov H. Tahlil san’ati. –T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1978.; Quronov D. Cho‘lpon va Freyd // O‘zbek tili va adabiyoti.- 1991.- N6.- B.50-51;
7. Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. –T.: Fan, 2006.
8. Umurov X.I. Problema psixologizma i uzbekskiy roman: Diss. na soisk. uchen. step. d-ra filol. nauk. – Tashkent, 1983. – 363c
9. Boboxonov M. Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 27 b.
10. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, Fan. 2008. – B.88.
11. Abdulla Qahhor. Anor hikoyar to‘plami. –Toshkent. 2018. 45-46 b.
12. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
13. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.